

**ҚУРИЛИШ ЭКОНОМИКАСИ ВА УНИ ТАШКИЛ ЭТИШ  
ЭКОНОМИКА И ОРГАНИЗАЦИЯ СТРОИТЕЛЬСТВА****QURILISHDA TAVAKKALCHILIKNI BOSHQARISHNING BIZNESDAGI AHAMIYATI**

**Ko'chimov Abdujamil Hamraqulovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi  
Jizzax Politehnika instituti

Maqolada iqtisodiyotning qurilish majmuasida biznes strategiyani shakllantirish maqsadida, avvalo xavf-xatar negizidagi tavakkalchilikni boshqarish to'g'risida tushuncha, shuningdek, uni boshqarish bo'yicha nazariy tavsiyalar va fikrlar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar.** Noaniqlik, tavakkalchilik, xavf-xatar, strategiya, motivatsiya, monitoring, ekspert baholash, analogik va analitik baholash, axborot, inertsial hodisalar.

В статье описывается концепция риск-ориентированного управления рисками, а также теоретические рекомендации и идеи по его управлению, с целью формирования бизнес-стратегии в строительном секторе экономики.

**Ключевые слова:** Неопределенность, риск, опасность, стратегия, мотивация, мониторинг, экспертная оценка, аналого-аналитическая оценка, информация, инерционные явления.

The article describes the concept of risk-based risk management, as well as theoretical recommendations and ideas for its management, to form a business strategy in the construction sector of the economy.

**Keywords:** Uncertainty, risk, danger, strategy, motivation, monitoring, expert assessment, analog-analytical assessment, information, inertial phenomena.

Yangi O'zbekistonni yaratish bo'yicha taraqqiyot strategiyasida yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo mahalliy xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivollantirishga qaratilgan sifat jihatdan yangi bosqichga o'tkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatdosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish, prinsipial jihatdan yangi mahsulot turlarini va o'zlashtirish, shu asosida ichki va tashqi bozorda milliy tovarlarning raqobatdoshligini ta'minlash ko'zda tutilgan.

Ammo, yanada modernizatsiya uchun bugungi kun talabi bo'yicha yuqorida zikr etilgan ustuvor yo'nalishlarni izchil, samarali, tizimli va jadal ravishda amalga oshirish uchun zaruriy usul va vositalar kerak bo'ladi. Ana shunday usul va vositalardan biri xavf-xatar negizidagi tavakkalchilikni boshqarishning lokal tizimini barpo qilishdir.

O'z mohiyatiga ko'ra, qurilishda tavakkalchilikni boshqarish noaniq iqtisodiy vaziyatda xavf darajasini pasaytirish, daromad (foyda) olish va oshirish san'ati bo'yicha ishlarni maqsadli yo'lga qo'yish va tashkil etishga asoslanadi. Suning uchun ham xavf-xatar negizidagi tavakkalchilikni boshqarishning yakuniy maqsadi biznesning maqsadli funktsiyasiga mos keladi.

Qurilishda tavakkalchilikni boshqarishni amliyot tajribalaridan kelib chiqib, biznes maqsadlariga, shu jumladan, moliyaviy maqsadlarga erishishga to'sqinlik qiluvchi omillarga qarshi kurashish mexanizmini o'z ichiga olgan tashkilotning moliyaviy boshqaruv tizimi deb ta'riflash mumkin.

Yana qurilishda tavakkalchilikni boshqarish tizimini ma'lum darajada xavf-xatarli vaziyatning boshlanishini bashorat qilish va xavfni bartaraf etish, xavf-xatarlardan kelib chiqadigan yo'qotishlarni kamaytirish yoki daromadni oshirish choralari

ko'rishga imkon beradigan usullar, uslublar va choratadbirlar majmui yoki xavf-imkoniyat sifatida ham tavsiflash mumkin.

Ushbu elementlarning o'zaro ta'siri qurilish korxonasining xavf-xatar negizidagi tavakkalchiligini boshqarish tizimining samaradorligini belgilaydi. Ushbu tizimning faoliyati qurilish korxonasining strategik yo'nalishiga ham albatta bog'liq bo'ladi.

Qurilishda tavakkalchilikni boshqarish jarayoni, o'ziga xos mazmunidan qat'iy nazar, doimo axborotni olish, uzatish, qayta ishlash va undan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Qurilishda tavakkalchilikni boshqarish jarayonida ushbu sharoitlarda ishonchli va yetarli ma'lumot olish asosiy rollardan birini o'ynaydi, chunki bu korxonaga tavakkalchilikka nisbatan dadilroq harakat qilish imkonini beradi. U statistik, iqtisodiy, tijorat, moliyaviy ma'lumotlarning butun majmuasini o'z ichiga oladi.

Ushbu ma'lumot ma'lum bir sug'urta hodisasi yoki sug'urta hodisasi sodir bo'lish ehtimoli, tovarlarga bo'lgan talab, kapital, moliyaviy barqarorlik va mijozlar, sheriklar, raqobatchilarning to'lov qobiliyati, narxlar, stavkalar va tariflar, shuningdek, sug'urtachilarning xizmatlari, sug'urta shartlari, dividendlar, foizlar va boshqalar to'g'risidagi ma'lumotlarning mavjudligini nazarda tutadi.

Qurilishda tavakkalchilikni boshqarish tizimi an'anaviy ravishda quyidagi funktsiyalarni amalga oshirishni o'z ichiga olishi lozim: maqsadlarni belgilash, tashkil etish, rejalashtirish, xavflarni boshqarish rejasini (dasturini) amalga oshirish, rejani (dasturni) monitoring qilish va muvofiqlashtirish, mutaxassislarni rag'batlantirish.

Qurilishda tavakkalchilikni boshqarishning maqsadi tavakkalchilik (xavf holati) xususiyatlarini biznesning muayyan maqsad va vazifalari talablariga muvofiqlashtirishdan iboratdir.

Qurilishda tavakkalchilikni boshqarishda albatta

motivatsiya mavjudki, (rag'batlantirish) unda moliyaviy menejerlar va boshqa mutaxassislarni o'z ishinining natijalariga qiziqishni uyg'otish o'z aksini topadi.

Qurilishda tavakkalchilikni boshqarishda monitoring (nazorat) - bu xavf darajasini pasaytirish bo'yicha ishlarni tashkil etishni tekshirishdir. Nazorat orqali rejalashtirilgan chora-tadbirlar dasturining bajarilish darajasi, xavfli kapital qo'yilmalarning rentabelligi, foyda va tavakkalchilik nisbati to'g'risida ma'lumotlar yig'iladi, buning asosida moliyaviy dasturlarga o'zgartirishlar kiritiladi, shuningdek, rejalashtirish, tashkil etish, tavakkalchilikni boshqarish kabi yo'nalishlar belgilanadi. Monitoring xavf darajasini pasaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Qurilishda tavakkalchilikni boshqarish tizimini yaratish uchun aniq nima tahlil qilinishi va boshqaruv ta'siriga qanday ijobiy jarayonga duchor bo'lishi mumkinligini oldindan tushunish kerak. Ushbu masala doirasida eng birinchi vazifa korxonaning ichki muhitida ham, tashqi muhitda ham tahlil bilan qamrab olinishi kerak bo'lgan ob'yektlarining umumiy sonini, shuningdek, uni amalga oshirish usulini aniqlash masalasi shakllanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, boshqaruv ob'ektlari nafaqat ehtimoliy xususiyatga ega bo'lgan, balki ega bo'lmagan xavf-xatarli hodisalardan ham iborat bo'ladi. Ushbu hodisalar mos ravishda xavf va noaniqlik sifatida ko'rib chiqiladi.

Qurilishda tavakkalchilikni boshqarish tizimining ustuvor vazifasi noaniqlik sharoitida samarali ishlashni ta'minlaydigan mexanizmni yaratish, ya'ni xavf muhitida taqdim etilgan imkoniyatlardan maqbul darajada foydalangan holda moslashuvchan qidiruv tizimini yaratishdir. Noaniqlikni bartaraf etish vazifasi tavakkalchilikni boshqarish tizimining kichik funktsiyasidir.

Qurilishda tavakkalchilikni boshqarish sxemasining axborot bloki uchta axborot oqimi to'plamini o'z ichiga olishi kerak:

- korxonaning oldingi rivojlanish tajribasi, shunga o'xshash loyihalar, bozorning inertial hodisalari va tendentsiyalarini umumlashtiruvchi ma'lumotlar to'plami;

- yechimni ishlab chiqish jarayonida olingan ma'lumotlar;

- qabul qilingan strategiyani amalga oshirish jarayonida bevosita olingan, shu jumladan favqulodda xarakterdagi ma'lumotlar.

Axborot parametrlariga qarab, bashorat va tahlil qilinadigan muhitni shakllantirish uchun uni idrok etishning u yoki bu usuli qo'llanilishi kerak. Bino-barin, tavakkalchilikni boshqarish tizimida axborot muhitining xususiyatlari bilan belgilanadigan boshqaruv usullarini ishlab chiqishning maqbullashtirish bloki bo'lishi kerak. Bularga quyidagilar kirishi mumkin:

- nazoratga asoslangan boshqaruv, kelajak o'tmishning takrorlanishi, bir qator ko'rsatmalar va turg'un tartiblarni yaratish orqali faoliyatni tartibga solish imkoniyati;

- umumlashtirishga asoslangan, ya'ni o'tmish kelajak rivojlanish tendentsiyalarini belgilashini hisobga olgan holdagi boshqaruv;

- o'zgarishlarni kutishga asoslangan boshqaruv;

- "moslashuvchan favqulodda yechimlar" ga asoslangan boshqaruv.

Shu munosabat bilan, korxonada tavakkalchilikni boshqarish tizimi tegishli ravishda kiruvchi axborot oqimining barcha bosqichlarida boshqaruv usullari majmuasini qo'llashga moslashtirilishi kerak.

Tavakkalchilikni samarali boshqarish tizimini yaratishda yana bir muhim muammo mavjud. Bu xavflarni aniqlash va baholash usulini tanlashdir. Ushbu vazifani amalga oshirish uchun asosiy parametr axborotning to'yinganligi bo'ladi.

Tanlangan qarorni amalga oshirishning bir qismi sifatida tavakkalchilikni boshqarish vazifasi mo'ljallangan yechim samaradorligini pasayishiga olib kelishi mumkin bo'lgan halokatli daqiqalarni yo'q qilishga yoki o'ta og'ir holatda loyihani amalga oshirishga bir butun darajada qodir bo'lmaydi.

Qurilish majmuasida quyidagi asosiy jarayonlar tahlil qilinishi va ularning keyingi faoliyatiga bevosita ta'sir qilishi kerak [1]:

- mamlakatdagi iqtisodiy strategiya yoki vaziyatning o'zgarishi, muayyan hududning iqtisodiy muhitining holati va xususiyatlari;

- siyosat, shartnomalar va bitimlar, me'yoriy-huquqiy va qonunchilik bazasidagi o'zgarish tendentsiyalari;

- mijozlar bilan axborot orqali ishlash tamoyillari va usullariga yondashuvni o'zgartirish;

- tavakkalchilikni boshqarish funktsiyalarini yanada rivojlantirish va nazorat qilish funktsiyasi bilan bir qatorda bo'limlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikda yordam berish uchun maslahat funktsiyasini bajarish;

- yuqori bo'linmalarining quyi bo'linmalar ustidan boshqaruvini va nazoratini yengillashtirishga qaratilgan, funktsional tamoyil asosida ishlaydigan tashkiliy tuzilmalarni birlashtirish asosida tavakkalchilikni boshqarishning korporativ xarakterini rivojlantirish;

- ishda avtomatlashtirilgan ish joylaridan foydalanish imkoniyatini olish maqsadida axborotlashtirish darajasini yanada oshirish, ochiq va yopiq ixtisoslashtirilgan ma'lumotlar bazalari va bilimlarini yaratish, axborot ma'lumotlar bazalarini jamlash va markazlashtirish;

- tavakkalchilikni boshqarish jarayonining ilmiy va madaniy salohiyatini oshirish va shunga mos ravishda xodimlarning kasbiy tayyorgarligi, intellektual rivojlanishi, bilimdonligi va ma'naviy-axloqiy fazilatlariga qo'yiladigan talablarni oshirish.

Tavakkalchilikni boshqarish jarayonidagi eng qiyin va mas'uliyatli vazifa xavfni aniqlash bosqichidir. Tavakkalchilikni boshqarish sohasidagi barcha keyingi ishlar ushbu bosqich natijalariga asoslanadi [2].

Tavakkalchilikni baholash va o'lchashning bir xil darajada o'ziga yarasha murakkabligi mavjud. Bu yerda, hozirgi kunga qadar, xavflarni baholash va o'lchash uchun keng ko'lamli amaliy vositalar va imkoniyatlar mavjud. Bularga ekspert, statistik, hisoblash va analitik va analogik (o'xshash) baholash usullari kiradi. Baholashning aniq usullarini tanlash zarurati axborot bazasining mavjudligi va raxbarlarning malaka va ko'nikma darajasi bilan belgilanadi.

Ekspert baholash usullari - ekspert xulosalariga

asoslangan bashoratlash va xavf-xatar negizidagi tavakkalchilikni tahlil qilish usullari guruhidir. Tavakkalchilikni ekspert baholashning eng keng tarqalgan usullari quyidagilardan iborat: “Delfi” usuli, reyting usuli, ikkita shaklga nisbatan taqqoslash usuli, xavfni ball shaklida baholash usuli. Mutaxassislarining fikrlarini umumlashtirgan holda, olingan baholarning ishonchliligi ekspertlarning malakasiga, ularning qarorlarining mustaqilligiga, shuningdek, ekspertiza o‘tkazishning uslubiy ta’minlanishiga bog‘liq. Olingan qiymatlarning ishonchliligi ko‘rsatkichlaridan biri ekspert xulosalarining muvofiqlik (kelishuv) koeffitsienti hisoblanadi.

Baholashning statistik usullarining mohiyati tadbirkorlik faoliyatining o‘xshash turlarida sodir bo‘lgan yo‘qotishlar statistikasi o‘rganish, ma’lum darajadagi yo‘qotishlarning paydo bo‘lish chastotasini belgilashdan iborat. Statistik baholash usullari korxonaga xavf darajasi to‘g‘risida eng to‘liq miqdoriy tushunchani olishga imkon beradi, shuning uchun ular amalda ko‘pincha qo‘llaniladi. Baholashning statistik usullaridan foydalanganda natijaning o‘rtacha kutilayotgan qiymati, standart og‘ish, o‘zgarish koeffitsienti va boshqalar kabi ko‘rsatkichlar hisoblanadi.

Hisoblash va tahliliy baholash usullari korxonaning ichki axborot bazasidan foydalanish asosida tavakkalchilik ehtimolini miqdoriy baholashga imkon beradi. Bunday holda, alohida xavf-xatarining yuzaga kelish ehtimoli korxona faoliyatining rejalashtirilgan ko‘rsatkichlariga qarab belgilanadi.

O‘xshash (analogik) baholash usullari korxonaning alohida tez-tez takrorlanadigan operatsiyalari uchun xavflarning yuzaga kelish ehtimoli darajasini aniqlashga imkon beradi. Shu bilan birga, taqqoslash uchun bunday moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish bo‘yicha korxona o‘zining tajribasidan ham, tashqi tajribadan ham foydalanishi mumkin [3].

Keyingi bosqich boshqaruv usullarini tanlash va xavflarni kamaytirish yo‘llarini aniqlashni o‘z ichiga oladi.

Tasniflash va baholash - bu xavflarni aniqlashning miqdoriy tavsifi bo‘lib, uning davomida mumkin bo‘lgan zarar ehtimoli va miqdori kabi xususiyatlari aniqlanadi. Bu vaqtda noqulay vaziyatlarning rivojlanishi uchun ssenariylar to‘plami shakllantiriladi va har xil xavflar uchun uning hajmiga qarab zarar yetkazish ehtimolini taqsimlash funktsiyalari tuzilishi mumkin.

Aniqlash va baholash bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularni umumiy jarayonning mustaqil qismlariga bo‘lish har doim ham mumkin emas.

Bundan tashqari, tahlil ko‘pincha ikki qarama-qarshi yo‘nalishda - baholashdan identifikatsiyaga va aksincha bo‘ladi. Birinchi holda, allaqachon yo‘qotishlar mavjud va buning sabablarini aniqlash kerak. Ikkinchi holda, tizimni tahlil qilish asosida xavflar va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan oqibatlar aniqlanadi.

Tavakkalchilikni baholagandan so‘ng, korxona xavf-xatarlarining butun majmuasini boshqarishning umumiy strategiyasini shakllantirish mumkin bo‘ladi.

Bu qaror qabul qilish bosqichi bo‘lib, zarur moliyaviy va mehnat resurslari aniqlanadi, vazifalar shakllantiriladi va menejerlar o‘rtasida taqsimlanadi, tegishli xizmatlar bozori tahlil qilinadi va mutaxassislar bilan maslahatlashiladi.

Uni yo‘q qilish siyosatini tavakkalchilikni boshqarishning muhim qarorlaridan biri deb hisoblash mumkin. Istisno tariqasida, ya’ni investitsiya loyihasini yoki moliyaviy-xo‘jalik operatsiyasini rad etish hisoblanadi. Shuni esda tutish kerakki, qaror qabul qilish muayyan moliyaviy xarajatlarga arziydigan voqeaning rivojlanish jarayoni haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lishni talab qiladi [4].

Bu, ayniqsa, har qanday innovatsion faoliyatga xos bo‘lgan noaniqlikning kuchayishi sharoitida to‘g‘ri keladi. Bu holatda qarorning haqiqiyliigi har doim shubhali bo‘ladi va bunday qarorni qabul qilishda xatolik eng muhim bo‘ladi. Innovatsion loyihani amalga oshirish doirasida boshqaruv qarori faqat rejalashtirilgan rejani amalga oshirishni belgilovchi voqea sodir bo‘lishiga ishonch yuqori bo‘lgan taqdirda qo‘llaniladi. Bunday ishonch bo‘lmasa, korxonada undan foydalanish uchun asosli sabab bo‘lmaydi.

#### Adabiyotlar:

1. Aynakulov M.A. Xudayberdiyev B.B. Motivatsiya samaradorlik garovi sifatida // Ilmiy axborotnoma jurnali. Samarqand Davlat Universiteti. 2020. № 2 (120). 91-94 b.
2. Aynakulov M.A. Problems, prestiges of animation process and technique // Uz ACADEMIYA. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. ISSN (E)-2181-1334. VOL 1, ISSUE 2, AUGUST 202. Jild-2
3. Айнакулов М.А. Абдухамидов Э.М. Нормативно-правовая база интеграционных отношений хозяйствующих субъектов. // «Молодой ученый». Международный научный журнал. Спецвыпуск Джизакского политехнического института. 2016. № 7.2 (111.2) S. 48-50.
4. Hamraqulovich, K. C. A. (2021). TURMUSH TARZIDA AHOLINING O‘ZO‘ZINI BAND ETISHINING BA‘ZI KO‘RINISHLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(5), 786-791.

## QURILISH ISHLAB CHIQUARISH JARAYONINI IXTISOSLASHTIRISH MASALALARI

**Aynakulov Muxitdin Abduxamidovich**, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent  
Jizzax politexnika instituti

Maqolada milliy iqtisodiyotning qurilish tarmog‘ida “Yangi O‘zbekiston” ning strategik rejalari asosida ishlab chiqarishini buyurtmachi korxonalar talabi asosida ekologik-iqtisodiy va hududiy jihatdan ixtisoslashtirish yo‘nalishlari bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Drayver, ekologik-iqtisodiy rayonlashtirish, tabiiy resurs salohiyati, ixtisoslashtirish, ijtimoiy mehnat unumdorligi, mehnat taqsimoti, makro zonalar, ishlab chiqarish kuchlari, antropogen ta’sir, “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”.